

INNOVATION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Rashidov Jamshid Xamidovich

*“International School of Finance Technology and Science” instituti “Menejment”
kafedrasi dotsenti*

rashidovj75@gmail.com

Annotatsiya: maqolada innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar, jumladan AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy mamlakatlarining tajribalari o'rganilgan, ulardan respublikada foydalanish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek universitetlar bilan sohadagi korxonalar o'rtasida yo'nalishiga mos yuqori texnologiyali klasterlar tashkil etish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, Bay-Dole qonuni, Stivenson-Vaydler qonuni, intellektual mulk, start-up-kompaniyalar, venchur kapitali, “Fraunhofer” va “Steinbeis”.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Рашидов Джамшид Хамидович

*Доцент кафедры менеджмента Института «International School of Finance
Technology and Science»*

rashidovj75@gmail.com

Аннотация: в статье изучен опыт зарубежных стран, в том числе США, Германии, Южной Кореи и Китая по повышению эффективности инновационной деятельности, даны рекомендации по возможностям их использования в республике. Также предложено создать высокотехнологичные кластеры соответствующие направлению между университетами и предприятиями отрасли.

Ключевые слова: *инновационная деятельность, закон Бай-Доле, закон Стивенсона-Вайдлера, интеллектуальная собственность, стартап-компании, венчурный капитал, "Fraunhofer" и "Steinbeis".*

THE POSSIBILITIES OF USING THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE ACTIVITIES

Rashidov Jamshid Hamidovich

Associate Professor of the Department of Management of the Institute "International School of Finance Technology and Science"

rashidovj75@gmail.com

Abstract: the article examines the experience of foreign countries, including the USA, Germany, South Korea and China, in improving the efficiency of innovation activities, and provides recommendations on the possibilities of their use in the republic. It was also proposed to create high-tech clusters corresponding to the direction between universities and industry enterprises

Key words: *innovation, Buy-Share law, Stevenson-Weidler Law, intellectual property, startup companies, venture capital, Fraunhofer and Steinbeis.*

KIRISH

Mamlakatning innovatsiyalar kiritish va uni bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish qobiliyati, uning istiqbolda xalqaro darajada raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka erishishga xizmat qiladi. Hatto so'nggi yillarda faol sanoat siyosatidan umuman voz kechgan mamlakatlar ham endi ishlab chiqarish o'sishini va unumdorlikni oshirish maqsadida innovatsiyalarni yaratishga qaratilgan sharoitlarni yaxshilashning yangi yo'llarini izlamoda.

Respublikamizda innovatsion faoliyat sohasida o'tkazilgan islohotlar amalda o'z ifodasini topmoqda. Agar O'zbekiston Global innovatsion indeksda (The Global Innovation Index) 2015 yilda 141 ta davlat orasidan 122-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024 yilda 133 ta davlat orasida 39 pog'onaga yuqorilab, 83-o'rinni egalladi¹.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jahon ilm – fanining jadal rivojlanishi, ilg'or texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanilishi innovatsion iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini belgilab berdi. Bu o'z navbatida ilm-fan va texnika yutuqlari asosida innovatsiyalarni rivojlantirishga va intellektual faoliyat natijalarini faol tijoratlashtirishga qaratilgan yangi boshqaruvni shakllantirishni taqozo qiladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi fanga, inson kapitaliga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishga investitsiyalarni kiritish bilan bevosita bog'liqdir. Fan va texnikaning rivojlanishi raqobatdosh ustunlikka erishishning asosiy manbaiga aylanmoqda.

¹ <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan>.

Mamlakatimizda ilmiy ishlanmalar va ixtirolar yaratish nuqtayi nazaridan, ilm-fan yetarlicha moliyalashtirilmasligi qaramay, u ancha jadal rivojlanmoqda. Biroq, bu keyingi bosqichlarda uzilishlar sodir bo'lishi natijasida, ya'ni innovatsion faoliyat zanjirining uzilishi tufayli yangilik ishlab chiqarishga, keyin esa bozorga yetib bormasligiga olib kelmoqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion faoliyatning nazariy va uslubiy jihatlari, tashkil etish va rivojlantirish muammolari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijlik olimlardan M.Dogdson, G.Grossi, J.Genri, D.Uolker, F.Vestley, X.Minzberg, B.Taker, Y.Shumpeter va boshqalar asarlarida zamonaviy innovatsion menejment nazariyasi masalalari keng yoritilgan.

MDH mamlakatlari olimlardan V.A.Shumayev, A.Abalkin, A.Anchishkin, A.Trifilova, I.Afonin, Ye.Balaskiy, V.Barancheev, V.Abramov, G.Gamidov, P.Zavlin, S.Ilyenkova, N.Kochetkov, Ye.Lapteva, A.Mazin, V.Medinskiy, V.Barancheeva, V.Gunina, V.Moseyko, O.Volodina, R.Fatxutdinova va boshqa olimlarning ishlarida innovatsion menejmentning nazariy va amaliy masalalari o'rganilgan.

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan N.Q.Yo'ldashev, A.Bekmuradov, M.Ikramov, Sh.Zaynutdinov, M.Mahkamova, R.Nurimbetov, Sh.Mirsaidova, Y.Goldman, Sh.Mustafaqulov, X.Muxitdinov, Z.G'oyibnazarovalarning asarlarida innovatsion menejmentning nazariy va amaliy masalalari keng yoritilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli va majmuaviy yondashuv, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, kuzatish monografik bayon usuli, guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Globalashuv va raqamlashtirish davrida tabiiy va sifatli mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir tomondan, insonlarning iste'mol madaniyati oshib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Bunda nafaqat rivojlangan davlatlar, balki boshqa rivojlanayotgan davlatlar ham innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va ekologik xavfsizlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lmoqda².

Hozirgi kunga qadar "innovatsiya", "innovatsion jarayon tushunchalari turli olimlar va mutaxassis tomonidan turlicha talqin qilinib kelingan.

² Rashidov Jamshid Khamidovich. Improving the methodology for managing innovation activity risks in textile enterprises. American Journal of Management Practice Vol.1, No.6 (Oct , 2024). E-ISSN: 2997-934X. Page 23-26.

Innovatsiya (inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) asosan quyidagi ikki ma'noda qo'llaniladi³:

1. Texnika - texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar.

2. Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari va eng ilg'or tajribalarga asoslangan yangi texnika - texnologiyalar, shuningdek boshqarish va mehnatni tashkil etish sohalaridagi yangiliklar, ularning har xil soha va faoliyat yo'nalishlari doiralarida joriy etilishi.

Innovatsiya - bu professional faoliyatning prinsipial tartibga solinmagan, uni prinsipial yangi sifat darajasiga olib chiqadigan yangi natijalarini yaratishdir⁴.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida olimlar yetakchi davlatlarni (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya) ajratib ko'rsatadilar, ularda joriy qilinayotgan texnologiyalar va mahsulotlar ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan, biznesning tijorat manfaatlariga javob beradi, davlatning strategik ustuvorliklarini hisobga oladi⁵.

Korxonaning barcha quyi tizimlari innovatsiya natijasida undagi quyi tizimlardan birida sodir bo'lgan o'zgarishlarga moslashganda innovatsiya qandaydir ijobiy natijalarga olib keladi⁶.

Hozirgi davrda ko'pgina xorijiy mamlakatlar innovatsion faoliyatni rivojlantirish, innovatsion jarayonni samarali tashkil etish, innovatsion mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish hisobiga keskin iqtisodiy tiklanishni amalga oshirmoqdalar. Respublikamizda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan innovatsion jarayonni tashkil etishning ijobiy tajribasidan foydalanish, shu asosda iqtisodiyotni rivojlantirish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti innovatsion rivojlanish yo'lida borishi, avvalo bilim olishga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim darajasini oshirish, yangi texnologiyalar va materiallar, yangi uskunalar, yanada samarali texnologiyalar va boshqa innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali respublikaning ilmiy salohiyatini rivojlantirish talab etiladi. Bunga mahalliy va xorijiy moliyaviy resurslarni birinchi navbatda ilm-fanga yo'naltirish orqali erishiladi.

Hozirgi davrda ko'pgina xorijiy mamlakatlar innovatsion faoliyatni rivojlantirish, innovatsion jarayonni samarali tashkil etish, innovatsion mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish hisobiga keskin iqtisodiy tiklanishni amalga oshirmoqdalar. Respublikamizda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan

³ Yo'ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2011. 6-b.

⁴ Гаибназарова З. Т. Модернизация: управление инновациями и управленческие инновации. История управленческой мысли и бизнеса. Управленческий труд и роли менеджеров: прошлое, настоящее, будущее: материалы XIX Международной конференции. 21-22 сентября 2018 г (р. 79).

⁵ Е.Н. Дуненкова, М.М. Бухарова. Зарубежный опыт формирования инновационной инфраструктуры на национальном и региональном уровнях. Вестник университета № 11, 2012 г. С.39-43.

⁶ Володина О.А., Фаддеева Е.Ю., Неретин А.А. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: МАДИ, 2019. С.15.

innovatsion jarayonni tashkil etishning ijobiy tajribasidan foydalanish, shu asosda iqtisodiyotni rivojlantirish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti innovatsion rivojlanish yo'lida borishi, avvalo bilim olishga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim darajasini oshirish, yangi texnologiyalar va materiallar, yangi uskunalar, yanada samarali texnologiyalar va boshqa innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali respublikaning ilmiy salohiyatini rivojlantirish talab etiladi. Bunga mahalliy va xorijiy moliyaviy resurslarni birinchi navbatda ilm-fanga yo'naltirish orqali erishiladi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda innovatsiyalarni ishlab chiqish va transferining juda samarali sxemalari tashkil etilgan bo'lib, ular asosida mahsulotlarning yuqori raqobatbardoshligi erishiladi. Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari amaliyotida innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy mezonlari loyihaaning texnologik ahamiyati va uni amalga oshirish bilan bog'liq xavf-xatarlardir. Davlat darajasida institutsional xavflarni kamaytirish strategiyasi tadbirkorlikka qaratilgan qarorlar erkinligini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlarda innovatsiyalar sohasidagi ba'zi bir to'siqlar ijobiy hal etilgan, shu jumladan AQShda, universitetlar universitetning intellektual mulkidan foydalanadigan kompaniyalardagi ulushlarini tartibga soluvchi mahalliy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega. Ushbu tajribadan foydalanish amaliyoti filiallarni yaratish nuqtayi nazaridan universitetlarning katta erkinligi bilan ajralib turadi va ularga tashqi moliyalashtirish manbalaridan katta mablag' jalb qilish imkonini beradi, bu esa juda katta tijorat samarasini beradi.

Innovatsiyalar sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish ma'muriy boshqaruv usullariga tayanishdan iqtisodiy usullarga bosqichma-bosqich o'tishning umumiy yo'nalishida amalga oshirilib borilmoqda. AQSh milliy innovatsion tizimining asosiy ishtirokchilari davlat, universitetlar va biznesdir. Davlat tadqiqotning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va milliy laboratoriya bazasini boshqaradi. Milliy laboratoriyalar milliy ustuvorliklarga muvofiq fundamental tadqiqotlar olib boradi.

AQShning byudjet-soliq siyosatida, xususan mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy asosini mustahkamlash sohasida olib boradigan faoliyatida ko'plab ijobiy tomonlarni ta'kidlab o'tish mumkin: mahalliy soliqlarni belgilashda ko'proq erkinlik berish, transfert yordam ko'rsatish dasturida qat'iy asoslab berish orqali xarajatlarni davlat bilan ulushli asosda amalga oshirish⁷.

AQSh qonunchiligi innovatsion faoliyatni tartibga solish, milliy innovatsion tizim rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq o'ndan ortiq qonun hujjatlarini o'z ichiga

⁷ Давлятова Г. М. Использование зарубежного опыта инновационной политики. "International journal of theoretical and practical research". Scientific Journal. September, 2022. С.38-45.

oladi. Ular moliyaviy, monopoliyaga qarshi, soliq, bojxona va boshqa mexanizmlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy tartibga solishning deyarli barcha majmuasiga ta'sir qiladi.

“Patent va savdo belgisi to'g'risidagi Bay-Dole” qonuni universitetlar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat tomonidan moliyalashtirish bilan, shuningdek shartnomalar yoki qo'shma korxona shartnomalari orqali o'z ixtirolariga egalik huquqini saqlab qolishga imkon berdi. Qonun universitetlarga patent va litsenziyalar olishni osonlashtirdi. Bay-Dole qonunining qabul qilinishi universitetlarda texnologiyalarni transfer qilish idoralarining rivojlanishiga olib keldi va marketing va litsenziyalash texnologiyalarining rivojlanishiga turtki berdi⁸.

Stivenson-Vaydler(Stevenson–Weidler)ning texnologik innovatsiyalar to'g'risidagi qonuni xususiy korxonalar va milliy laboratoriyalar tomonidan qo'shma ilmiy tadqiqotlar jarayonida yaratilgan ixtirolarga egalik huquqini belgilaydi. Stivenson-Vaydler qonuniga ko'ra, federal hukumat tarkibida texnologiyalarni uzatish jamg'armasi tashkil etilgan. Natijada, har bir laboratoriya texnologiyani tijoratlashtirish idorasini ochdi.

AQShda universitetlar asosan davlat va xususiy kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan asosiy tadqiqotlarni olib boradilar. Mamlakat innovatsion tizimining o'ziga xos alohida elementi bu iste'molchilarga (korxonalarga) yangi ishlanmalar va ixtirolarni taqdim etish qobiliyatidir. AQShda biznes universitetlar va milliy laboratoriyalarning intellektual mulki iste'molchisi; ularning intellektual mulki asosida mahsulot ishlab chiqaruvchisi; universitet professor-o'qituvchilari tomonidan taqdim etiladigan maslahatchilik xizmatlarining iste'molchisi; yangi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi. AQShda innovatsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish izchilligi quyidagicha shakllangan:

Tadqiqotning birinchi bosqichi AQSh Milliy ilmiy jamg'armasi, AQSh Milliy Sog'liqni saqlash instituti, korporatsiyalar, universitetlar va xususiy fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Grantlar ajratish bo'yicha tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish va ishtirok etish bo'yicha ishlar olib boriladi. Fundamental tadqiqotlar universitetlar, milliy va korporativ laboratoriyalarda olimlar va muhandislar tomonidan olib boriladi.

Ikkinchi bosqich-olimlar va muhandislar tomonidan gipotezalar, g'oyalar tayyorlash va universitetlarda, milliy hukumat laboratoriyalarida, korporativ laboratoriyalarda va start-up-kompaniyalarda innovatsiyalarni rivojlantirish. Moliyaviy yordam AQSh Milliy ilmiy jamg'armasi, AQSh Milliy Sog'liqni saqlash institutlari, xususiy korporatsiyalar, universitetlar, davlat idoralari va biznes farishta(angel)lari tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek, kichik biznes innovatsion tadqiqot dasturlari ham ta'sir qiladi. Ushbu bosqich natijalarida ixtirolar yaratiladi, gipoteza tasdiqlanadi va patentlar olinadi.

⁸ Шумаев В.А., Дивуева Н.А., Лукашева Н.А. Зарубежный опыт организации инновационного развития экономики. Инноватика и экспертиза. 2021. Выпуск 2 (32). С.28-39.

Uchinchi bosqich-tajriba namunalarini yaratish. U start-up-kompaniyalar, kichik biznes va korporativ bo'limlari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqish amalga oshiriladi. Bu ishga muhandislar, ishlab chiqarish, moliya va marketing bo'yicha mutaxassislar qatnashadilar. Moliyalashtirish mexanizmlari-biznes farishta(angel)lari, kichik biznes innovatsion tadqiqot dasturlari, korporatsiyalar, venchur kapitali hisoblanadi. Ushbu bosqich natijalari bo'lib tajriba namunalari, patentlar va biznes-rejalar hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich-mahsulotni ishlab chiqish, mahsulot start-up-kompaniyalar, kichik biznes va korporativ bo'limlari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, venchur kapitali, kapital qo'yilmalar, tijorat kreditlari va korporativ kapitaldan foydalaniladi. Natija bo'lib ro'yxatdan o'tgan va ishlab chiqarish va sotishga tayyor bo'lgan raqobatbardosh mahsulot hisoblanadi.

Beshinchi bosqich-ommaviy ishlab chiqarish. U start-up- kompaniyalar, kichik korxonalar tomonidan amalga oshiriladi va yirik korporatsiyalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalaniladi. Moliyalashtiruvchilar bo'lib venchur kapitali, investitsiyalar, tijorat kreditlari, korporativ kapital, aksiyadorlar hisoblanadi. Natija bo'lib innovatsion mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish va bozorga chiqarish hisoblanadi.

Germaniyada universitetlar bilimlarni yaratishda faol ishtirok etadi. Mamlakatda 346 ta universitet mavjud bo'lib, ulardan 170 tasi amaliy fanlar sohasida ta'lim berish va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanadi. Universitetlar ta'lim bilan birga tadqiqot o'tkazish yo'naltirilgan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida marketing va biznes yuritish bilan shug'ullana olmaydi. Universitetlar yaratgan har 5000 ta yangilikdan faqat bittasi haqiqiy mahsulotga aylanadi.

Muvaffaqiyatga erishish mahsulotni samarali bozorga chiqarish uchun kompaniyalar va universitetlar birgalikda ishlashlari va birgalikda yangi mahsulotlar yaratishlari kerak. Muvaffaqiyatning yana bir mezonu-bu texnologiya uzatish xizmatlaridan foydalanish. Texnologiyalar transferi sohasida xizmatlarning asosiy ta'minotchilari "Fraunhofer" va "Steinbeis" hisoblanadi. "Fraunhofer" asosan tadqiqot va ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanadi, "Steinbeis" esa mijozlar bilan ishlaydi. "Fraunhofer" va "Steinbeis" biznesdagi eng kuchli kompaniyalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi: ular bozor qanday rivojlanayotganini, unda qanday tendensiyalar paydo bo'layotganini, ishlab chiqarishni rejalashtirish tizimlariga ega ekanligini bilishadi. "Fraunhofer" jamiyati global miqyosdagi eng yirik texnologiyalar transferi tashkilotlaridan biridir. Uning tarkibiga Germaniyaning 74 shahrida joylashgan 40 ta tuzilma kiradi, ularda 29 mingga yaqin xodim ishlaydi. Tashkilot faoliyati mijozning ehtiyojlariga qaratilgan: u prototiplarni yaratishda ishtirok etadi, mijozlar uchun yakuniy yechimlarni e'lon qiladi. Umuman olganda, universitetlar va kompaniyalar o'rtasida faol hamkorlik mavjud. Tadqiqotlar turli xil

fanlar bo'yicha olib boriladi. Byudjet yiliga 1,25 milliard yevroni tashkil etadi va u doimiy ravishda o'sib boradi. Uchdan bir qismi intellektual homiylik tomonidan moliyalashtiriladi, shuningdek moliyalashtirishning tashqi resurslari ham mavjud. Bundan tashqari, ular iqtisodiy asosda ishlaydilar, faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishi uchun sanoat va kompaniyalar bilan shartnomalar tuzadilar⁹.

“Fraunhofer” jamiyati Amerikadagi Stenfordning tajribasini ham o'zlashtirgan. “Steinbeis” - bu 100% xususiy fondan iborat bo'lib, uchinchi tomonning mablag'laridan foydalanadi. Germaniyada ushbu kompaniyaning yuzdan ortiq institutlari mavjud. “Steinbeis” juda qiziqarli yondashuvdan foydalanadi, chunki u professor-o'qituvchilarning motivatsiyasi va tadbirkorlik ruhiga asoslangan to'liq o'zini o'zi moliyalashtiradigan tadqiqot tashkilotidir. Universitetlarning professor - o'qituvchilari o'quv yuklamani kamaytirishi va bu vaqtni “Steinbeis” institutlari va moliyaviy resurslar mavjud bo'lgan tegishli fond orqali amalga oshirib, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanishi mumkin.

So'nggi 20-25 yil ichida 700 dan ortiq kichik “Steinbeis” kompaniyalari tashkil etildi, ularda 4000 dan ortiq xodim ishlaydi. “Steinbeis” turli mamlakatlarda ish yuritadi. U Turkiya, Ruminiya, Bolgariya kabi mamlakatlarda yangi institutlar ochgan. Uning faoliyati xalqaro miqyosda ham kengayib bormoqda.

“Steinbeis” biznes bilan, shu jumladan kichik va o'rta biznes bilan juda yaqin aloqada faoliyat yuritadi. Turli muassasalar bilan ishlashda ushbu kompaniyalar bozor xususiyatlarini, texnologiyalar transferini amalga oshirish tendensiyalarini yaxshi bilishadi va texnologiyalarni transferida universitet tadqiqotlari natijalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

Janubiy Koreya jaxonda sanoat va iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha o'ziga xos o'rniga ega. Janubiy Koreya davlat va xususiy korporatsiyalar bilan hamkorlik puxta ishlab chiqilgan strategiya va chora-tadbirlar asosida yuqori natijalarga erishdi. Mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan ko'plab muammolar hozirgacha mavjud. Davlat ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan patentga berilgan talabnomalar soni juda kam. Yana bir muammo-texnologiyalarni boshqarish sohasida professional mutaxassislarning yetishmasligi. Janubiy Koreya iqtisodiyotining yanada rivojlanishi universitetlar, sanoat korxonalari va umuman davlat sektori, shu jumladan davlat ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi yaqin hamkorlik bilan bog'liq. Sanoat korxonalariga o'nlab asosiy hamkor- texnik innovatsiyalarni yetkazib beruvchilar, jumladan, universitetlar 18%, buyurtmachilar – 15%, turdosh sohalardagi kompaniyalar – 14%, raqobatchilar – 14%, davlat ilmiy – tadqiqot institutlari-11% hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, sanoat korxonalari birinchi navbatda universitetlar bilan ishlashni afzal ko'rishadi. Universitetlarning ITTKI lariga xarajatlari 10% tashkil

⁹ Шумаев В.А., Дивуева Н.А., Лукашева Н.А. Зарубежный опыт организации инновационного развития экономики. Инноватика и экспертиза. 2021. Выпуск 2 (32). С.28-39.

etsa, davlat sektorida esa ITTKI lariga sarflangan barcha investitsiyalar 70 % ni tashkil qiladi .

Fransiyada ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish asosan yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar shaklida Milliy ilmiy tadqiqotlar agentligi (ANR) tomonidan tanlov asosida amalga oshiriladi. Uning faoliyati Fan va oliy ta'lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadi¹⁰.

Xitoy iqtisodiy islohotlar olib borishni boshlaganda dastlab universitetlarga e'tiborini qaratib, fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali davlatni mustahkamlash vazifasini oldiga qo'ygan. Xitoy hukumati universitetlar nafaqat ta'lim markazlari, balki ilmiy-tadqiqot markazlari ham bo'lishi kerak degan qarorga keldi. Ta'lim berish qatorida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish ham universitetlarning asosiy maqsadlariga aylandi. Xitoyning yangi ta'lim strategiyasi universitetlar oldiga iqtisodiy rivojlanish ustuni bo'lib xizmat qilish talabini qo'ydi. Universitetlar bilan ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasidagi munosabatlar ham mustahkamlandi. Kun tartibining bosh masalasida universitetlar va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshirish qo'yildi. Pekin Osiyodagi yetakchi universitetlardan biri faoliyat yuritib, u o'lgan ko'p qavatli binolar majmuasiga ega. Bu binolarning barchasi universitet ilmiy ishlanmalari asosida yaratilgan kichik korxonalar uchun inkubatorlar bo'lib hisoblanadi. Xitoyning deyarli barcha yirik universitetlarida u yoki bu turdagi inkubatorlar mavjud va ular kichik korxonalar tashkil etadi. Darhaqiqat, yuqori texnologiyalar va nanotexnologiya sohasidagi yetakchi kompaniyalarning aksariyati universitetlar negizida rivojlanadi. Xitoyning milliy innovatsion tizimidagi universitetlarning o'rnini quyidagicha keltirish mumkin :

- fan va texnologiyalar sohasidagi ilg'or ilmiy-tadqiqotlar;
- texnologiyalarni uzatish va tadbirkorlarni o'qitish;
- butun umr davomida uzluksiz ta'lim;
- innovatsion klasterlarni rivojlantirish maqsadida sanoat tarmog'i bilan hamkorlik qilish.

Hozirgi vaqtda Xitoyda mahalliy yoki milliy universitetlar bilan chambarchas bog'langan 50 dan ortiq milliy yuqori texnologiyali klasterlar faoliyat yuritib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

AQShda innovatsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmidan mamlakatimizda foydalanish yuqori samara beradi. Shuningdek respublikamizda ilmfan, biznes va davlat o'rtasida uzviy bog'langan, hamkorlik qiluvchi, yaratuvchi, doimiy yangilanishga qaratilgan tizimni shakllantirish zarur.

¹⁰ Дивуева Н.А. Анализ зарубежного опыта организации отбора инноваций на основе научно-технической экспертизы. Наука и современность – 2015. С.198-203.

Germaniyaning “Fraunhofer” va “Steinbeis” tashkilotlarining texnologiyalar transferi tajribalaridan respublikamizda innovatsion faoliyatni amalga oshirishda foydalanish, uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday tashkilotlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda Xitoyning mahalliy yoki milliy universitetlar bilan chambarchas bog‘langan milliy yuqori texnologiyali klasterlar tashkil etish bo‘yicha tajribalaridan foydalanish yuqori samara beradi. Buning uchun mamlakatimizdagi universitetlar bilan shu sohadagi korxona va tashkilotlar o‘rtasida yo‘nalishiga mos yuqori texnologiyali klasterlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rashidov Jamshid Khamidovich. Improving the methodology for managing innovation activity risks in textile enterprises. American Journal of Management Practice Vol.1, No.6 (Oct , 2024). E-ISSN: 2997-934X. Page 23-26.

2. Е.Н. Дуненкова, М.М. Бухарова. Зарубежный опыт формирование инновационной инфраструктуры на национальном и региональном уровнях. Вестник университета № 11, 2012 г. С.39-43.

3. Шумаев В.А., Дивуева Н.А., Лукашева Н.А. Зарубежный опыт организации инновационного развития экономики. Инноватика и экспертиза. 2021. Выпуск 2 (32). С.28-39.

4. Дивуева Н.А. Анализ зарубежного опыта организации отбора инноваций на основе научно-технической экспертизы. Наука и современность – 2015. С.198-203.

5. Володина О.А., Фаддеева Е.Ю., Неретин А.А. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: МАДИ, 2019. С.95.

6. Yo‘ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2011. 6-b.

7. Давлятова Г. М. Использование зарубежного опыта инновационной политики. “International journal of theoretical and practical research”. Scientific Journal. September, 2022. С.38-45.

8. Гаибназарова З.Т. Модернизация: управление инновациями и управленческие инновации. История управленческой мысли и бизнеса. Управленческий труд и роли менеджеров: прошлое, настоящее, будущее: материалы XIX Международной конференции. 21-22 сентября 2018 г (р. 79).

9. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2024.<https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan>.